

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА



2022 йил 1-сон



2. Икромов Э.Ф., Икромов Э.Э. О межвидовых ассоциации гельминтов во внутренних органах озерной лягушки – *Rana ridibunda* (Pallas, 1771) // Биоразнообразие Ферганской долины: актуальные проблемы и пути их решения. Андижан, 2017. С. 88-90.
3. Икромов Э.Ф., Икромов Э.Э. Нематоды озерной лягушки (Amphibia, Anura) Ферганской долины//Экологические вопросы сохранения, восстановления и охраны биологического разнообразия Южного Приаралья.-Нукус, 2018, часть 1.-С.97-100
4. Икромов Э.Ф., и др. Гельминтофауна озерной лягушки - *Rana ridibunda* (Pallas,1771) Наманганской области // Естественные науки и также некоторые проблемы экологии. Наманган. (11-часть). Наманган. Изд НамГУ, 2016. С.334-337.
5. И.В. Чихляев., и др. Обзор гельминтов земноводных (amphibia) Самарской области // Общая биология. 2018. С 385-400
6. Аниanova В.С., и др. Методы сбора и изучения гельминтов мелких позвоночных. Уч. пособие -Петрозаводск. 2007. 146 с
7. Рыжиков К. М., Гельминты амфибий фауны СССР.— М: Наука, 1980. 279 с.
8. Скрябин К. И. 1928. Метод полных гельминтологических вскрытий позвоночных, включая человека. М.: Изд-во МГУ. 45 с.

## **NEYROPEPTIDLAR VA ULARNING BIOLOGIK VAZIFALARI**

Qodirova Zulfiya Kobilovna  
Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Neyropeptidlar va ularning olimlar tomonidan aniqlangan kimyoviy formulalari, shuningdek biologik vazifalari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Neyropeptidlar, Enkefalinlar va endorfinlar, Opioid peptidlar, Oksitotsin, vazopressin, Adrenokortikotrop gormon (AKTG).

## **НЕЙРОПЕПТИДЫ И ИХ БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ**

Кодирова Зулфия Кобиловна  
Бухарский государственный университет

**Аннотация.** В данной статье приведены информация о нейропептидах и их химических формулах определенным учеными, а также об их биологических ролях.

**Ключевые слова.** Нейропептиды, энкефалины и эндорфины, опиоидные пептиды, окситоцин, вазопрессин, адренокортикотропный гормон (АКТГ).

## **NEUROPEPTIDES AND THEIR BIOLOGICAL FUNCTIONS**

Kodirova Zulfiya Kobilovna  
Bukhara State University

**Annotation.** This article provides information on neuropeptides and their chemical formulas identified by scientists, as well as their biological functions.

**Keywords:** Neuropeptides, Enkephalins and endorphins, Opioid peptides, Oxytocin, vasopressin, Adrenocorticotropic hormone (ACTG).



Oliy ta'lim muassasalarining kimyo ta'lim yo'nalishi bakalavr talabalari uchun Bioorganik kimyo kursida "Peptidlarning biologik vazifalari" mavzusi o'rinni olgan. Ushbu mavzuga kiritilgan peptidlardan biri Neyropeptidlar hisoblanadi. Lekin o'zbek tilida mavjud bo'lgan adabiyotlarda yetarli miqdorda ma'lumotlarni topish qiyin. Mazkur maqolada Biz ana shu Neyropeptidlar haqidagi imkon qadar ma'lumotlar berishga harakat qildik.

**Neyropeptidlar** - markaziy va periferik asab sistemasida hosil bo'ladigan va odam hamda hayvonlar organizmining fiziologik funksiyalarini boshqaruvchi peptidlardir. Neyropeptidlar 2 tadan 40-50 tagacha aminokislota qoldiqlaridan iborat moddalardir. Ularning ko'pchiligi chiziqli tuzilishga ega, lekin halqasimon tuzilishli peptidlar ham ular orasida uchraydi.

Bosh miyada aniqlangan peptidlarga neyropeptidlar deb atash qabul qilindi. Ular markaziy nerv sistemasini vazifalariga ta'sir etish qobiliyatiga ega. Bu guruhga yuqori biologik ta'sir spektrlariga ega bo'lgan gipotalamus va gipofiz peptidlari ham kiradi. Shak-shubhasiz neyropeptidlar soni ancha, ammo ularidan ayrimlarigina to'liq o'rganilgan. Ko'pchilik neyropeptidlar nerv hujayralari orqali sintezlanadi.[1-6].

**Enkefalinlar va endorfinlar.** Enkefalinlar va endorfinlar - opinoid fermentlarning namunalari bo'lib, ular bosh miyaning morfin (opiat) retseptorlariga ta'sir qiladi. Ushbu birikmalar morfinga o'xshab og'riqsizlantirish qobiliyatiga ega va eyforiya (kayfiyatni ko'tarish) holatini keltirib chiqaradi.

Morfin va uning sintetik analoglarining sistematik tadqiqoti 1973 yilda opiat retseptorlarning kashf qilinishiga olib keldi. Cho'chqa miyasidan olingan ikkita enkefelinlarning tuzilishi aniqlandi.

Tyr - Gly - Gly - Phe - Met Met-enkefalin

Tyr - Gly - Gly - Phe - Leu Leu-enkefalin

Shu guruhga tegishli boshqa peptidlar ajratib olindi va tavsiflandi.  $\alpha$ -,  $\beta$ -,  $\gamma$ - va  $\delta$ -endorfinlar (endogen morfinlar) (Ch. Li, R.Gillemin, 1975 - 1976):

$\alpha$  Tyr - Gly - Gly - Phe - Met - Thr - Ser - Gln - Lys - Ser - Gln - Thr - Pro - Leu - Val - Thr

$\beta$  Tyr - Gly - Gly - Phe - Met - Thr - Ser - Gln - Lys - Ser - Gln - Thr - Pro - Leu - Val - Thr

- Leu - Phe - Lys - Asn - Ile - Lys - Asn - Ala - His - Lys - Lys - Gly - Gln

$\gamma$  Tyr - Gly - Gly - Phe - Met - Thr - Ser - Gln - Lys - Ser - Gln - Thr - Pro - Leu

$\delta$  Tyr - Gly - Gly - Phe - Met - Thr - Ser - Gln - Lys - Ser - Gln - Thr - Pro - Leu - Phe - Lys

Bir oz keyinroq yana bir qator opinoid peptidlar, aynan dinorfin (1 - 17) cho'chqa gipofizidan (A.Goldshteyn, 1979), hamda  $\alpha$ - va  $\beta$ - neoendorfinlar (G.Matsuo, 1980) aniqlandi.

Tyr - Gly - Gly - Phe - Leu - Arg - Arg - Ile - Pro - Lys - Leu - Lys - Trp - Asp - Gln

Dinorfin

Tyr - Gly - Phe - Leu - Arg - Lys - Tyr - Pro - Lys

$\alpha$ -Neoendorfin

Tyr - Gly - Gly - Phe - Leu - Arg - Lys - Tyr - Pro

$\beta$ -Neoendorfin

Opioid faolligi aniq ifodalangan peptidlar boshqa manbalardan ham ajratib olindi:  $\beta$ -kazomorfin (kazein gidrolizatidan) hamda A va B dermofinlar (janubiy amerika qurbaqasining terisidan):

Tyr - Pro - Phe - Pro - Gly - Pro - Ile

$\beta$ -Kazomorfin

Tyr - D-Ala - Phe - Gly - Tyr - Pro - Ser - NH<sub>2</sub>

Demorfin A

Tyr - D-Ala - Phe - Gly - Tyr - HyPro - Ser - NH<sub>2</sub> Demorfin B

Opioid peptidlarning biologik ta'siri - og'riq sezuvchanligini boshqarish (analgeziya), jo'shqin xulq-atvor, xotira va o'rGANIB qolishga bog'liq bo'ladi. Bu peptidlar o'simliklardagi analoglariga o'xshab, narkotiklar uchun xarakterli bo'lgan hodisalarни keltirib chiqaradi, ya'ni o'rGANIB qolish, jismoniy mutelik, nafas olishning qiyinlashishi va yurak faoliyatining yomonlashishi. Opioidlarning ta'sir mexanizmi miya neyromediatorlari - dofamin, atsetilxolin, noradrenalin va boshqalarning sekretsiya jarayonida ishtirok etishiga asoslangan. Opioidlarning barcha biologik effektlari bitta antagonist - nalokson bilan so'ndiriladi.


Opioid peptidlarning xususan enkefalin va dinorfinning bir necha yuz analoglari sintez qilinib, ular yuqori faollikka ega bo'lib, amaliyatga ko'p qo'llaniladi. Bu guruh neyropeptidlarning ko'pchiligi eritmalarda harakatchan konformatsiyalarga ega bo'ladi va ularning retseptorlar bilan o'zaro ta'siri "dinamik farmokofor" (ligand va retseptoring o'zaro mos kelishi) konsepsiyasiga asoslanadi.[1].

**Oksitotsin va vazopressin** - asab (nerv) to'qimasidan ajratib olingan ilk biofaol peptidlardir (Dj. Abel, 1924). Bu neyrogormonlarning tuzilishi kimyoiy sintez yo'li bilan (V. Dyu. Vino, 1953) - tabiiy peptidlarni birinchi marta to'liq sintezlash orqali tasdiqlandi.[1].

Vazopressin va oksitotsin gipotalamusda ishlab chiqariladi, aksanlar orqali gipofizning orqa qismiga tushadi va qonga o'tadi. Ular ko'nikish, jinsiy intilish, ota-onalik hissiyotlari kabi xulqiy reaksiyalarning shakllanishiga ta'sir etadi. Vazopressin va oksitotsin stressda himoya reaksiyalarining yaratilishida ishtirok qiladi. Bundan tashqari bu gormonlar arterial qon bosimiga, silliq mushaklarning qisqarishiga va modda almashinuviga ham ta'sir o'tkazadi.

Vazopressin (antidiuretik gormon) 9 ta aminokislota qoldig'idan tuzilgan: *Cys-Tyr-Phe-Gln-Asn-Cys-Pro-(Arg éku Lys)-Gly*. Uning asosiy funksiyasi organizmda suyuqlikni saqlab turish va qon tomirlarini toraytirishdan iborat.


Vazopressin organizmda reasorbsiyani oshirib (peshobning konsentratsiyasini oshirib, hajmini kamaytirib) suv miqdorining saqlanishini nazorat qiladi. [3,4]



## Vazopressin

Oksitotsin

Oksitotsinning eritmadi konformatsiyasi YaMR - spektroskopiya asosida aniqlandi (R.Uolter, D.Urri) va u yetarlicha qattiqligi bilan ajralib turadi (ayniqsa, ichkimolekulyar –S-S– bog' hisobidan). Bunday konformatsiyada  $\beta$ - struktura kuzatiladi (1-rasm).[1,2].



1- Rasm. Eritmadagi oksitotsin molekulasining konformatsiyasi.

Oksitotsin va vazopressin juda keng miqyosdagi biologik ta'sirlari bilan ajralib turadi. Ular silliq mushaklarning qisqarishiga ta'sir qiladi. Ikkala gormon ham tibbiyot va qishloq xo'jaligida keng qo'llaniladi, hamda kimyoviy sintez asosida sanoat miqyosida ishlab chiqariladi.[1].

**Adrenokortikotrop gormon.** Adrenokortikotrop gormon (AKTG, kortikotropin) – 39 a'zoli polipeptidni gipofizning old qismi hujayralari ishlab chiqaradi. 2-rasmda bir qator hayvonlarning va odamning AKTG strukturasi tasvirlangan.

2- Rasm. 1) qoramol; 2) cho'chqa; 3) odam ning AKTG sidagi aminokislotalar ketma-ketligi.

Dastlab, cho'chqa AKTG si uchun taklif qilingan 39 a'zoli peptidning to'liq sintezi 1963 yilda R.Shvinser va P.Ziber tomonidan amalga oshirildi. Olingan birikma xossalari bo'yicha tabiiy gormonga yaqin bo'lgan. Odamning AKTG sintezi K.Xofman va R.Shvitser guruhlari tomonidan mustaqil ravishda o'tkazildi.

Adrenokortikotrop gormon AKTG – adenogipofizda sintez bo'ladigan gormon. Adrenokortikotrop gormon keng biologik ta'sirga ega. Uning asosiy ta'sirlaridan biri *adaptatsiya gormonlari* – kortikosteroidlarni ishlab chiqaruvchi buyrak usti bezlarini qo'zg'atishdan iborat. Undan tashqari u lipotrop faollikni namoyon qilib, yog' bezlarida yog' kislotalar sintezini, qo'zg'atadi, qondagi glyukoza miqdorini kamaytiradi, oqsil almashinuviga, hayvonlarning asab sistemasi va fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatadi. AKTG ni miyaning boshqa bo'limlari ham sintez qilishi mumkinligi isbotlangan va u gormonal



funksiyalardan tashqari neyromediator roliga chiqishi, miya po'stlog'ining xotira, diqqat, o'rGANISH kabi oliy funksiyalarida ham ishtirok qilishi mumkin [1,4].

Ser - Tyr - Ser - Met - Gli - His - Phe - Arg - Trp - Gly - Lys - Pro - Val - Gly - Lys - Lys - Arg - Arg - Pro - Val - Lys - Val - Tyr - Pro - Asn - Gly - Ala - Gly - Asp - Glu - Ser - Ala - Glu - Ala - Phe - Pro - Leu - Glu - Phe

#### Adrenokortikotrop gormon

Xulosa qilib aytganda neyropeptidlar - markaziy va periferik asab sistemasida hosil bo'ladigan va odam hamda hayvonlar organizmining fiziologik funksiyalarini boshqaruvchi peptidlar bo'lib, ular asosan aminokislota qoldiqlaridan iborat moddalardir. Tabiatda peptidlar analoglarini sintez yo'li bilan olish ularning hujayra darajasida ta'sir qilish mexanizmini aniqlashda, peptidlar faolligi bilan ularning fazoviy tuzilishi orasidagi bog'liqlikni aniqlashga yangi dorivor vositalar yaratishga imkon beradi. Usbu ma'lumotlarni talaba-yoshlarga yetkazish biz pedagoglarning asosiy vazifamizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Овчинников Ю.А. Биоорганическая химия / М.: Просвещение. - 1987. – 815С.
2. Н.А. Тюкавкина, Ю.И.Бауков. Биоорганическая химия. З-е издание. Москва. 2004.
3. Филиппович Ю.Б. Основы биохимии. - 4-е изд. – М.: Агар. - 1999. - С.15-22.
4. Долимова Г.Н., Маулянов С.А.. Оқсилларнинг тузилиши ва биологик функциялари. – Тошкент. – 2019. – 222 б.
5. Ergashov M.Y., Qodirova Z.Q. Biokimyodan laboratoriya mashg'ulotlari - Toshkent: Muhammarr , 2018. - 180 b.
6. Oripov E.O., Nasrullahov A.O. Bioorganik kimyo. -T.: Fan va texnologiya, 2012. 272 b.

UDK 581. 4. 682.6. (571.1.)

#### **SHOTARA(*FUMARIA VAILLANTII LOISEL.*)NING GULLASH BIOLOGIYASI**

Qarshiboyeva Nasiba Haydarovna<sup>1</sup>, Mamirova Xurshida To'lqin qizi<sup>2</sup>.

A.Qodiriy nomli Jizzax davlar pedagogika instituti  
(biologiya fanlari nomzodi, katta o'qituvchi<sup>1</sup>, magistr<sup>2</sup>)

[nasiba\\_q@jspi.uz](mailto:nasiba_q@jspi.uz)

**Annotatsiya:** Shotara - *F. vaillantii Loisel.*ning gullash biologiyasi – mavsumiy va sutkalik gullash biologiyasi, urug' mahsulorligi o'rGANildi. Shotara kunduzgi gullaydigan, eng ko'r gullaydigan vaqtiga soat 12 – 16 ekanligi o'rGANildi.

**Kalit so'zlar:** shotara, sutkalik gullash, mavsumiy gullash, urug' mahsulorligi, dorivor.

#### **БИОЛОГИЯ ЦВЕТЕНИЯ *FUMARIA VAILLANTII LOISEL.*- ДЫМЯНКИ**

Каршибаева Насиба Хайдаровна<sup>1</sup>, Мамирова Хуршида Тулкиновна<sup>2</sup>

Джизакский педагогический институт имени А.Кадырий

(кандидат биологических наук, ст.преподовател<sup>1</sup>, магистр<sup>2</sup>)

[nasiba\\_q@jspi.uz](mailto:nasiba_q@jspi.uz)

**Аннотация:** Биология цветения *F. vaillantii Loisel.* – дымянки. Биология сезонного и суточного цветения, семенную продуктивность. Дымянка цветёт днём. Изучалось, что 12 – 16 часов.



**БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ  
БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ  
BIOLOGICAL SCIENCES**

26	<b>In Vitro plant regeneration of Paulownia Shan Tong</b> Ubaydullaeva H.A., Bolkiev A.A., Sultonova SH.A., Abdullaev A.N., Eshmurzaev J.B., Abdullaev S.A. ....	140
27	<b>Comparison analysis of fiber quality traits in parental genotypes of the nested association mapping population under natural saline land and optimal conditions</b> Normamatov I.S., Makarov A.KH., Kholmuradova M.M., Boykobilov U.A., Khusenov N.N., Norbekov J.K., Kushakov SH.O., Buriev Z.T. ....	147
28	<b>Фаунистический анализ гельминтов амфибий ферганской долины</b> Икромов Эл., Икромов Эр., Амиров О. ....	154
28	<b>Neyropeptidlar va ularning biologik vazifalari</b> Qodirova Z. ....	160
30	<b>Shotara(<i>fumaria vaillantii loisel.</i>)ning gullash biologiyasi</b> Qarshiboyeva N., Mamirova X. ....	164
31	<b>Фарфона водийси шимолий адирларида тарқалган <i>Amaranthaceae</i> оиласининг таксономик таҳдиди</b> Хошимов X., Батошов А., Шарипов И. ....	167
32	<b>Агрофизические свойства почвенного покрова ивановской области и его оценка</b> Гончаров В.М., Фаустова Е.В., Юлдашев Г.Ю. ....	172
33	<b>Митохондрия липидларининг перекисли оксидланишида Фосфолипидлар таркибини ўзгариши ва уни Фловасан билан коррекциялаш</b> Мамажанов М. М., Ниёзов К. А. ....	178
34	<b>Морфогенетические реакции и стратегии жизни мягкой пшеницы при воздействии гербицидов</b> Пардабаев Ш.Т. ....	185

**ФАЛСАФА ФАНЛАРИ  
ФИЛОСОФКИЕ НАУКИ  
PHILOSOPHICAL SCIENCES**

35	<b>Жамият барқарорлигини таъминлашнинг объектив ва субъектив омиллари</b> Аббосова ....	194
36	<b>Жамият мухитини ахлоқий меъёрлаштириш асослари.</b> Нурматова И. ....	198
37	<b>Ибн Ал-Арабийнинг имом ғаззолий тўғрисидаги фикрларининг фалсафий-тарихий аҳамияти</b> Музаффаров Ф.Д. ....	203